



## JAMIYATDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINLARARO BAG`RIKENGLIK MUHITINI MUSTAHKAMLASH

**Ibroximova Ulug`oy Doniyorjon qizi**

Farg`ona Davlat Universiteti talabasi

*Annotatsiya:* Globallashib borayotgan dunyoda bag`rikenglik tamoyili, XXI asrda „bag`rikenglik tushunchasi noyob madaniy hodisa sifatida, Abu Rayhon Beruniy asarlarida insonparvarlik va bag`rikenglik tamoyillari haqida fikr yuritilgan.

*Kalit soz`lar:* Bag`rikenglik, tolerantlik, diniy konfessiya, o`zga irq.

Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko`p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo`stlik, ezigulik, qalb saxovati va tom ma`nodagi bag`rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo`lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi.

Turli madaniyatga mansub aholi vakillari o`zaro ahil-inoq yashab kelayotgan O`zbekistonda milliy va diniy bag`rikenglik hukm surmoqda. Bag`rikenglik turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e`tiqodli insonlarning bir zamin, yagona Vatan, bir yurtda, bir hududda oliyjanob g`oya, orzu-umid, maqsad va niyatlar yo`lida hamkor, hamfikir, hamjihat bo`lib yashashini anglatadi.

Yurtimizda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o`z e`tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millarlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o`rtasida qadimiy mushtarak an`analarni rivojlantirishga alohida e`tibor qaratib kelinmoqda.

2017-yil 30-may kuni ushbu dolzarb masalaga bag`ishlab, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo`yicha qo`mita, O`zbekiston milliy teleradiokompaniyasi va O`zbekiston musulmonlari idorasi tomonidan O`zbek milliy matbuot markazida, „Milliy va diniy bag`rikenglik - tinchlik va barqarorlik garovi” mavzusida matbuot anjumani tashkil etildi.

Anjumanda mamlakatimizda millatlararo va dinlararo munosabatlar sohasida yuritilayotgan oqilona siyosat asosida har bir shaxsning vijdon va e`tiqod erkinligi, diniy qarashlardan qat`iy nazar teng huquqliligi ta`minlanayotganligi, shuningdek Respublikamizdagi diniy tashkilotlar jamiyatda tinchlik, osoyishtalik, millatlar va dinlararo totuvlikni mustahkamlash borasida sermahsul faoliyat ko`rsatib kelayotganliklari qayd etildi.

O`zbekistonda milliy va diniy sohada olib boriladigan siyosat BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilda qabul qilingan „Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” moddalari va ruhiga

hamohang ekani hamda davlatimiz vijdon erkinligini ta'minlash borasida o'z zimmasiga olgan barcha xalqaro shartnomalarni to'la-to'kis bajarib kelayotgani alohida ta'kidlanadi.

Hozirgi vaqtga kelib tobora globallashib borayotgan dunyoda bag'rikenglik tamoyili ijtimoiy-ma'naviy hayotning turli sohalarida katta qiziqish uyg'otmoqda. Inson, jamiyatning mohiyati, ularning kelajakdagi taqdiri muammolari nuqtai nazaridan qaraganda, bag'rikenglik masalasiga har tomonlama turli darajadagi yondashuvlar ro'y bermoqda.

XXI asr boshlariga kelib „bag'rikenglik” tushunchasi jamiyat hayotida noyob madaniy hodisa darajasiga ko'tarildi. Dastlabki vaqtlarda u murosai-madora ma'nosida e'tirof etilgan bo'lsa, bora-bora uning ma'no-mohiyati kenggaya bordi. Bag'rikenglik shunchaki tushuncha emas, balki jamiyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismi sifatida muayyan ijtimoiy-ma'naviy hodisa, xilma-xil tur, shakl va talqinlardagi noyob holat sifatida tushunilmoqda. Bag'rikenglik tamoyilining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, hodisalarning tafovutlari, ziddiyatlari, farqlari haqida so'z borganda unga ehtiyoj paydo bo'ladi. Umuman, bag'rikenglik sabrlik yoki befarqlik deb eams, turli madaniyat, din, antropologik toifalarda namoyon bo'ladigan xilma-xilliklarga hurmat va ehtirom bilan yondashish degan ma'noda talqin etiladigan bo'lib qoldi. Bunday birdan-bir chegara yoki cheklash shundan iboratki, xilma-xillik umume'tirof e'tilgan insonparvarlik me'yorlaridan chetga chiqmasligi kerak, bunda insoniyatning mazkur me'yorlarni qabul qilishi nazarda tutiladi.

Hozirgi kunda ushbu muammo butun insoniyat uchun alohida ahamiyat kasb etmoqda. Butun dunyoda terrorism va ekstremizmga qarshi kurashish zarurati xalqaro miqyosda davlatlarning kuch-g'ayratini birlashtirishni talab qiladi. Shu yo'l bilangina tinchlik va inoqlikda yashash, o'zga madaniyat va diniy konfessiyaga, o'zga irqqa murosah muhitini yaratish, turli xalq va millatlarning bahamjihatligiga erishish mumkin.

Globalashib borayotgan dunyoda bag'rikenglik obyektiv voqealikka aylanib, xalqaro ma'no kasb eta boshladi. Bag'rikenglik fuqarolik jamiyatini barpo etishda tag-zaminning demokratik qadriyatga, zamonaviy tamaddunning yashab, rivojlanishining zarur shartiga aylana bordi.

Hozirgi kunga kelib, ijtimoiy munosabatlarning yangi toifasi deya talqin etilmoqda. Bag'rikenglik hodisasining noyob mohiyati uning fanlararo xususiyatidan iborat bo'lib, u shuning uchun ham aksariyat gumanitar fanlar tomonidan o'rganilmoqda. Garchi bag'rikenglik voqeligini o'rganish sohasida ayrim natijalarga erishilgan bo'lsa ham, bu tushunchaning ilmiy kategoriya sifatida amaliy yo'nalish mohiyati haligacha aniq ta'riflab berilgan emas.

Tolerantlik so'zi lotincha „tolerantia” so'zidan olingan bo'lib, sabr-toqat ma'nosini bildiradi. Bag'rikenglikning ma'no va mohiyati turli xalqlarda bir-biriga o'xshash tarzda talqin etiladi. Masalan, inglizchada-sabr-toqatli, e'tiborli bo'lish, arabchada- kechirimli, marhamatli, yumshoq, o'zbekchada boshqalarga nisbatan bag'riochilik, o'zgalarning turmush tarziga, fel-atvoriga, urf-odatlariga, fikr- mulohazalariga muruvvatli bo'lish.<sup>1</sup>

Bag'rikenglik- inson huquqlarini qaror toptirish, plyuralizm, demokratiya va huquqning tantanasi uchun ko'maklashish majburiyatidir. Bag'rikenglik aqidabozlikdan, haqiqatni mutlaqlashtirishdan voz kechishni anglatuvchi va inson huquqlari sohasidagi xalqaro- huquqiy hujjatlarda o'rnatilgan qoidalarni tasdiklovchi tushunchadir.

Bag'rikenglikni namoyon qilish inson huquqlariga ehtirom bilan hamohang, u ijtimoiy adolatsizlikka nisbatan sabr-toqatli munosabatda bo'lishni o'z imon-e'tiqodidan voz kechish yoxud boshqalarning e'tiqodiga yon berishni anglatmaydi. U shuni anglatadiki, odamlar o'z tabiatida tashqi ko'rinishi, qiyofasi, o'zini tutishi, nutqi va qadriyatlari jihatdan farqlanishi e'tirofga

---

<sup>1</sup> Murtazayeva. R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Toshkent: „Go To Print”-2020. B.5.

loyiqligi barobarida ular dunyoda yashashga va o'zlarining ana shu individualligini saqlab qolishga haqlidirlar. U yana shuni anglatadiki, bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emas.

Hozirgi zamon bag'rikenglik madaniyati o'tkir o'zaro ziddiyat sharoitida shakllanayotganligi anglab o'tmoq kerak. Bu esa, insoniyatning ijtimoiy munosabatlar madaniyatini ancha yuqori pog'onaga ko'tarishni va buning uchun sodir bo'layotgan o'zgarishlarning mazmun va mohiyatini yaxshiroq anglab olishni talab qiladi.

Sharqning buyuk qomusiy mutafakkir olimi Abu Rayhon Beruniy ijodida ham bag'rikenglikka muhim ahamiyat qartilib, bu hol uning boy ilmiy merosiga ham singdirilgan.

Beruniyning ilmiy meros insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillari bilan jilolangan. Shular sirasiga „Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar“, „Hindiston“ asarlari ahamiyatlidir.

Buyuk davlat arboblari Amir Temur, Ulug'bek, Bobur dinlar o'rtasida, millatlar o'rtasida totuvlikni mustahkamlashga butun umrlarini bag'ishlaganlar va bu sohada muayyan muvaffaqiyatlarga erishganliklari tarixiy manbalardan ma'lumdir. Turkistonning XIX asr XX asr boshlaridagi milliy taraqqiyparvar ziyolilari bo'lmish jadidlar ham diniy bag'rikenglik g'oyalarini ifodalab berganlar. Ularning atoqli namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat va boshqalar o'z asarlarida ham amaliy faoliyatlarda ham bag'rikenglik ya'ni tolerantlik g'oyalarini targ'ib qiladilar.<sup>2</sup>

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik, beg'ubor osmon, munavvar kunlarimizning qadr-qimmati, ahamiyati har qachongidan ham ortib bormoqda. Ana shu tinchlik, osoyishtalik omili bo'lgan diniy bag'rikenglik tamoyillarini yanada mustahkamlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Yurtimizda xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zaminda buyuk g'oya va sof niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi bag'rikenglikning yorqin namunasidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Murtazayeva. R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. Toshkent. „Universitet“.2007.
2. Murtazayeva. R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Toshkent. „Go to Print“.2020.

---

<sup>2</sup> Murtazayeva.R. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va bag'rikenglik. Toshkent: „Universitet“-2007.B.24.